


105. Massa va massa birliklari

massa
kilogramm



1. Bir qopda 30 kg, ikkinchisida esa undan 2 kg ortiq bug'doy bor. Ikkita qopda hammasi bo'lib necha kilogramm bug'doy bor? Ifoda tuzing va uning qiymatini toping.

[illegible]

- ## 2. Ifodalarning qiymatini toping.


$$\begin{array}{l} 56 \text{ kg} - 12 \text{ kg} + 10 \text{ kg} = \square \square \text{ kg} \\ 56 \text{ kg} - (12 \text{ kg} + 10 \text{ kg}) = \square \square \text{ kg} \\ 47 \text{ kg} - 15 \text{ kg} + 11 \text{ kg} = \square \square \text{ kg} \\ 47 \text{ kg} - (15 \text{ kg} + 11 \text{ kg}) = \square \square \text{ kg} \end{array}$$



3. Uchburchak barcha tomonlari uzunliklari yig'indisi 11 cm ga teng.

Uchburchak tomonlari uzunligiga teng kesmalarni chizing.

TRM_METODIKA_UZ





4. Qopdan 8 kg un olingandan so'ng, unda 6 kg un qoldi. Dastlab qopda hammasi bo'lib necha kilogramm un bo'lgan?

Ifoda tuzing va uning qiymatini toping.

[illegible]

- ## 5. Hisoblang.

$12 + (2 + 4)$	$47 - (25 - 21)$
$23 + (10 + 3)$	$14 + (76 - 53)$
$45 + (20 + 2)$	$92 + (19 - 18)$



Rasmdan foydalangan holda ifodalardan istalganiga masala tuzing.



- 6.** Kichik tegirmonda bir marta yanchganda 3 kilogramm bug'doy yanchish mumkin. Ikki, uch hamda besh marta yanchganda-chi? Chizmada ko'rsating. Uchtalab sanang.



7. Bitta yuk mashinasi 40 qop un tashiy oladi. 90 qop unni tashish uchun nechta mashina kerak bo'lsa, shuncha mashinani bo'yang. Har bir mashinaga u necha qop tashib ketayotganini yozing.

